

MILLIY MAQOM SAN'ATINI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA E'TIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8401537>

Maxkamov Doston Faxriddin o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqom san'ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o'rghanish va yosh ijrochilarga o'rgatishga doir bo'lgan masalalar va bu borada foydali maslahatlar berilgan. Ushbu maqola maqom san'atiga qiziquvchi yoshlari uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

Kalit so'zlar

Maqom, milliy san'at, musiqa, Shashmaqom, usullar, nasr, vazn, ohang.

Аннотация

В данной статье рассматривается искусство макама и его развитие в наши дни, вопросы, связанные с его изучением и обучением молодых исполнителей, а также полезные советы по этому поводу. Эта статья предоставляет общую информацию для молодых людей, интересующихся искусством макама, и обогащает их представление о макаме.

Ключевые слова

Статус, национальное искусство, музыка, Шашмаком, методы, проза, вес, тон.

Abstract

This article provides useful advice on the art of makom and its current development, issues related to its study and training of young performers. This article provides general information for young people interested in the art of maqom and enriches their understanding of maqom.

Keywords

Status, national art, music, Shashmaqom, methods, prose, weight, melody.

Maqom san'ati ko`pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo`lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo`lib, bastakorlik ijodiyotining o`ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar kengma'noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o`zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sadoohanglar, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog`lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o`z to`laqonli ifodasini topgan.

"G'iyosullug`at" qomusining muallifi G`iyosuddin quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - pardai surudro go`yand" - «Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytildi Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobi, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy; Sherazi, Marog`iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan.

O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Yurtimizdag'i "Shashmaqom", "Xorazm", "Farg'ona - Toshkent" maqomlari kuyning o'ziga xos mavqeい va ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Har bir ilmning o'z tarixi, shakllanish varivojlanish bosqichi bo'lgani kabi maqom san'ati ham bir necha asrlik boy tarixga ega. Maqom - yetuk va o'ziga xos og'zaki professional musiqa turkum janri bo'lib, o'rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan.

Maqom - xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang. Shu bois, u asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug' va sohir san'at turiga e'tibor susaygandek edi. Lekin, Prezidentimizning milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi qarori ayni muddao bo'ldiki, Davlatimiz rahbari O'zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvida ta'kidlaganidek, biz xalqimizning noyob merosi bo'lgan maqom san'atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo'ylab keng targ'ib qilish, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarni tashkil etish ustida ishlashimiz kerak. Deya takidlashlari va aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikdan yorqin ifodasini topmoqda. 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" gi qarorlari esa san'atimiz tarixidagi unutilmas voqea bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi" ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy maqom san'at irivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor barcha ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda. O'zbek xalqi ulkan va betakror musiqiy merosga ega. O'zbek milliy musiqa san'atining gultoji sanalgan "Shashmaqom" va uning turkumlari

mumtoz she'riyatimiz bilan uyg'un holda g'oyat go'zal san'at namunasini hosil etganki, bu yuksak musiqaga jahon ahli hayrat bilan qaraydi.

Mamlakatimizda har ikki yilda «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, mazkur noyob musiqa merosimiz targ'ibotiga oid ko'rik-tanlovlari, ijodiy loyihalarning o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan. 2003 yilda "Shashmaqom" YUNYESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi", deb tan olinishi maqom san'atiga bo'lgan e'tibor va e'tirofning amaliy ifodasidir. Poytaxtimizda O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilib, hozirda samarali faoliyatini boshlashi ham ulkan voqealarning davomidur. Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda.

Maqom qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiylar merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehrlanib, sel bo'lib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unibo'sib kelayotgan yosh avlodimizn ing ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarni safarbar etishimiz zarur. Maqom xalqimizning bebaho ma'naviy merosi. Ushbu san'at rivojlanishning uzoq davrini bosib o'tgan, ko'plab san'atkorlar, bastakorlar uning tadrijiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan. Ularda inson kechinmalarining eng nozik ohanglari jamlangan. Shu sabab maqomni his qilish, tushunish uchun ma'lum tayyorgarlik zarur. Buning uchun kishi yoshlikdan musiqaga mehr qo'yishi, ruhiy kamolotini ayni shu jihat bilan bog'lamog'I kerak. Maqomni eshitish uni tugal tushunishni anglatmaydi. Ijro yo'liga kelsak, u alohida san'at, alohida madaniyat.

Turkiy xalqlar maqomida umumiy jihat kuy avji va tugallanishiga alohida ahamiyat qaratilishidir. Avj pardalari balandroq, yakuniy qism dilga xush yoquvchi nafis ijro etiladi. Maqom juda yirik turkum. U boshqa musiqa asarlaridan mukammalligi, kuy va shakl tizimlariga ega ekani bilan farqlanadi. Shuning uchun maqomni ijro etayotganda, avvalo, mumtoz adabiyotdan xabardor bo'lishi zarur. Ijrochi maqom ustida ishlayotganda bir so'zning ma'nosini tushunmadimi, shu g'azalni maromiga yetkazib kuylay olmaydi, ya'ni shoir bilan hofiz o'rtasida devor paydo bo'ladi. Maqom juda katta ilm. Maqomchilik havaskor xonandalarning oldiqochdi so'zlari, xatti-harakatidan xoli bo'lmosg'i kerak. Maqom ajdodlardan biz avlodlarga o'tib kelayotgan boy xazina. Uni asrab avaylash va bugungi kun yosh ijodkorlari uchun o'z aslicha hech bir ziyonlarsiz yetkazib bera olishimiz shart. Buning uchun esa avvalo o'zimiz bu oltin san'atning tub mazmunini anglashimiz,

undagi sehrli jilolaru, qalblarni titratguchi pardalarini aynan asl holicha tushunmog'imiz va ijro etmog'imiz kerak. Aks holda o'zimiz to'laqonli anglab yetmagan tushunchani yosh avlodga yetkazgudek bo'lsak bu durdona san'atga bo'lgan bizning o'quvsizligimiz va hurmatsizligimiz bo'lib qolishi mumkin.

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, avloddan avlodga "ustozshogird" an'anasi oraqali meros bo'lib o'tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Kasbiy musiqaning shakllanishida "saroy madaniyati" muxim o'rinn tutgan bo'lib, xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bo'lib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar maxsus shug'ullanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi. Maqomlar shakl tuzilishi jihatidan juda salobatli san'at namunasidir. Shu bois o'tmishda yashab ijod etgan ko'pgina mutafakkir olimlar Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Sayfiddin Urmaviy, Qutbiddin Sherazi, Abduraxmon Jomiy va boshqalar maqomlarga doir ilmiy risolalar yozganlar. Shu tariqa maqom ijrochiligi, ijodkorligi va maqom nazariyasi fani rivojlanib keldi.

Maqom san'atini o'rganar ekansiz undagi manbaalar va uni kelib chiqishi haqida chuqurlashsangiz har bir qirrasi inson siyratidan olinganini anglab yetasiz. Masalan maqomdagи usullarni olaylik, Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillardandir. Ularni ajrata olish, maqomlarni qiyofasini to'g'ri tushunishga imkon beradi. Ular muayyan tartib asosida tarkib topgan. Har bir usul o'z nomiga egadir. Masalan: Saraxbor, nasr, talqin, savt, gardun, talqin, qashqarcha, soqiynoma, ufar va h.k. Manbalarda ko'rsatilishicha, ilk usul insonning tomir urishidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko'rilsa, uning go'yo "tan-tan"ga o'xhash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni "Usuli zarbi qadim" (Qadimiy zorb usuli) deb ataganlar. Bu ham bo'lsa bir sehrdek gap. Mana shunday sehrga ega "Maqom" san'atini o'rganishda va uni o'rgatishda eng avvalo uni kelib chiqishi, shakllanishi, bugungi kunimizdagи ahamiyatini chuqur o'rganishimiz va ana shu tushunchalarni o'z aslicha yosh o'rganuvchilarga yetkazishimiz, maqom san'atini hali yana ming yillar yashashi va yashnashiga asos bo'la oladi degan umiddamiz. Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va sanoatsevar xalqimizga etkazish muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa bu borada ustozdan - shogirdga o'tib kelgan xalq anoanaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon

sanoatkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib bormog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari" to'grisidagi qarori Toshkent 17.11.2017 yil
2. O'zME . Toshkent 2000-yil
3. Yunus Rajabiy. "Maqom asoslari" G'.G'ulom nomli badiiy adabiyot va san'at nashryoti . Toshkent 1992-yil.
4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
5. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.